

IQTISODIY O‘SISHNI PROGNOZLASHTIRISH NAZARIYASI

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Makroiqtisodiyot kafedrasida o‘qituvchisi PhD
Raximov Xasan Shukurjonovich,
Magistr Usmonov Navruzbek Erkin o‘g‘li*

Annotatsiya: Ushbu maqolada, iqtisodiyotning o‘shini prognozlashtirish nazariyasi haqida so‘z yurutilgan.

Kalit so‘zlar: Iqtisodiy o‘sh, yalpi milliy mahsulot, ekstensiv, intensiv, iqtisodiyot, Markai bank, iqtisodiy muhit, prognozlash, makroiqtisodiy modellar.

Annotation: This article talks about the theory of economic growth forecasting.

Keywords: Economic growth, gross national product, extensive, intensive, economy, Markai Bank, economic environment, forecasting, macroeconomic models.

Аннотация: В данной статье рассказывается о теории прогнозирования экономического роста.

Ключевые слова: Экономический рост, валовой национальный продукт, экстенсивный, интенсивный, экономика, банк Маркай, экономическая среда, прогнозирование, макроэкономические модели.

Iqtisodiy o‘sh deb, aholi ehtiyojlari uchun zamir bo‘lgan moddiy ne‘matlar va xizmatlarni ishlab chiqarishning ko‘payib borishiga aytiladi. Moddiy ne‘matlar deganda biz nafaqat noz-ne‘matlarni, balki shu bilan birga ishlab chiqarish vositalari va resurslarining ko‘payib o‘sh borishini ham tushunamiz. Iqtisodiy o‘sh real yalpi milliy mahsulotni (YAMM) aholi jon boshiga nisbiy narxlarida taqsimlash yoki jamiyat yalpi ishlab chiqarish hajmi ko‘rsatkichlarida o‘z ifodasini topadi. Iqtisodiy o‘sh mikro va makro ko‘lamda yuz beradi. Mikroiqtisodiy o‘sh xo‘jalik bo‘g‘inlari, firma yoki tarmoq doirasidagi o‘shni makroiqtisodiy o‘sh esa jamiyat miqyosidagi mikroiqtisodiy o‘shni bildiradi. Iqtisodiy o‘shning hajmini uning kolami va sur‘ati ko‘rsatadi.

Iqtisodiy o‘shning ikki turi mavjud: ekstensiv va intensiv. Ekstensiv rivojlanishida iqtisodiy o‘shga ishlab chiqarishning avvalgi texnikaviy asosi saqlanib qolgan holda ishlab chiqarish omillari miqdorining o‘shini hisobiga mahsulot hajmi oshadi. Iqtisodiy o‘shning bu turi ishlab chiqarish samaradorligiga olib kelmaydi. Intensiv iqtisodiy o‘sh yo‘li yaratilgan mahsulot va xizmatlar; miqdorining ko‘payishi, ular sifatining yaxshilanishi, resurslarning tejamliligi ishlatilishi, fan-texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga tatbiq etish va mehnat unumdorligini oshirish hisobidan amalga oshirilishidir. Bu ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligiga uzviy bog‘liq. Samaradorlik ishlab chiqarish natijalarining xarajatlarga nisbati bilan aniqlanadi.

Samaradorlik qancha resurs sarflab, qancha va qanday sifatli mahsulot va xizmatlar yaratilganligini ifodalaydi. Makroiqtisodiyotda ishlab chiqarish samaradorligi YAMM - pirovard natijasi bilan o'lhansa, mikroiqtisodiyot miqyosida esa (korxonada), yaratilgan sof mahsulotning yoki fondning mahsulot tannarxiga nisbati bilan aniqlanadi.

S&P Global Ratings xalqaro reyting agentligi O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti o'sishini 2023-yilda 5 foiz, 2024 yilda esa 5,5 foiz darajasida prognoz qilmoqda. Bu haqda reyting agentligining O'zbekiston bank sektori tahliliga bag'ishlangan hisobotida ma'lum qilindi.

Joriy yil uchun yalpi ichki mahsulotning o'sishi taxminan 5 foizni tashkil etishi prognoz qilinmoqda, biroq keyingi ikki yilda u 5,5 foizni tashkil etadi. Mintaqadagi va jahondagi murakkab geosiyosiy vaziyatga qaramay, iqtisodiyot tiklanishda davom etadi. Biroq Rossiya-Ukraina mojarosi, iqtisodiy pasayish va inflyatsiya bosimi fonida iqtisodiy ko'rinish o'zgaruvchanligicha qolmoqda. Pul o'tkazmalarining o'sishi, shuningdek, kapital va migrantlar oqimining o'sishi 2023-yildan boshlab o'zgarib boshlaydi.

S&P O'zbekistonda davlat korxonalarini samaradorligini oshirish va xususiylashtirishni amalga oshirish bo'yicha iqtisodiy islohotlar dasturini ijobiy baholaydi. Bu davlat sektori ustunlik qiladigan iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mintaqadagi geosiyosiy keskinliklar va jahon iqtisodiyotining beqaror prognozi tufayli keng ko'lamlil xususiylashtirish vaqt talab etadi.

2022-yilda O'zbekiston iqtisodiyoti Ukrainaga qarshi urush oqibatlarini agentlik tahlilchilari taxmin qilganidan ko'ra yaxshiroq yengib o'tdi, bunga Rossiyadan pul o'tkazmalarining ko'payishi hamda Rossiya bilan savdo hajmining oshishi sabab bo'ldi. 2022-yili aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot 9,3 foizga o'sdi va 2146,7 dollarni tashkil etdi. Biroq yashirin iqtisodiyotning sezilarli hajmi tufayli aholining real daromadlari rasmiy daromadlardan yuqori bo'lishi mumkin.

Tahlilchilar iqtisodiy muhit 2022-yildagi mo'tadil o'sish bilan solishtirganda, 2024-yilga kelib kreditlashning 25–30 foizga o'sishini qo'llab-quvvatlashini kutmoqda. Ba'zi yutuqlarga qaramay, dollarlashuv keyingi ikki yil davomida yuqori darajada qolishi mumkin.

Ma'lumotlarga ko'ra, hukumatning sof qarzi 2025-yilga borib YAIMning 23 foizini tashkil etadi - bu xalqaro kontekstda past daraja. Joriy hisob taqchilligi keyingi uch yil ichida yalpi ichki mahsulotning o'rtacha 6 foizini tashkil etadi, lekin to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va qarzlar oqimi hisobiga moliyalashtiriladi.

Shuni ham aytib o'tish joizki, Markaziy bank 2023-yil oxirigacha mamlakat iqtisodiyoti 4,5–5% darajasida o'sishini prognoz qilgan. Kutilayotgan inflyatsiya darajasi esa 8,5–9,5% bo'ladi. Bu yil pul-kredit siyosatining ta'sir doirasi bazaviy

inflyatsiyaning o'sish dinamikasi hamda tashqi iqtisodiy sharoitlardagi xatarlar sabab qisqarishi mumkin.

Iqtisodiy o'sishning ikki jihati bor, ularni farqlamoq kerak. Birinchidan, uning ko'lami ishlab chiqarish hajmini bildiradi. butun jamiyatda qancha mahsulot va xizmatlar yaratilishini, ularning o'sishi qanday miqdorda bo'lishini ko'rsatadi. O'sishning ikkinchi tomoni, uning sur'atlari bo'lib, iqtisodiy o'sishni nisbiy jihatdan ifodalaydi, uning mutlaq o'sishi emas, balki o'sish tezligini ko'rsatadi. Uning o'sish sur'ati ko'rsatkichlari bilan ifodalanadi. Iqtisodiy o'sish tahlil qilinishida uning har ikki jihati birgalikda ko'riladi. Iqtisodiy o'sishning nafaqat miqdoriy, balki sifat me'yori ham mavjud. Shu sababli yaratilgan mahsulot va xizmatlar miqdoran ko'payibgina qolmasdan, o'z sifati jihatdan talab - ehtiyojni qondirishga qodir bo'lishi talab etiladi. Qoloq iqtisodiyotda iqtisodiy o'sishning miqdoriy tomoni birlamchi bo'ladi, chunki ishlab chiqarish darajasi past bo'lganligidan mahsulotlarni tanlab iste'mol etish imkoniyatlari cheklangan bo'ladi, sifati yetarli bo'lmasada, ko'proq mahsulot talab qilinadi.

Makroiqtisodiy model - iqtisodiy matematik modellarning uzviy qismi, butun iqtisodiyotni va uning eng muhim tarmoqlari, sektorlari, sohalari rivojlanishini matematik shaklda aks ettiruvchi iqtisodiy matematik model. Makroiqtisodiy model iqtisodiyotni yagona tizim sifatida ifodalab, uning umumlashtirilgan moddiy va moliyaviy ko'rsatkichlari: yalpi ichki mahsulot, iste'mol, investitsiya, bandlik, foiz stavkalari, pul miqdori va boshqalarning o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi. Makroiqtisodiy modelni tuzishning asosiy maqsadi makroiqtisodiy bog'lanishlardan iborat turli hodisalarni soddalashtirilgan shaklda ifodalash orqali uning yechimini topishdir. Makroiqtisodiy model tuzish jarayonida o'rganilayotgan hodisanyng muhim omillari aniqlanib, yechilishi kutilayotgan muammo uchun muhim bo'lmagan jihatlar tushirib qoldiriladi. Makroiqtisodiy model tuzish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: a) tadqiqotning predmeti va maqsadi soddalashtirilgan holda belgilanadi; b) kuzatilayotgan makroiqtisodiy tizimning maqsadga muvofiq tarkibiy va funksional unsurlari ajratib olinib, ularning eng muhim sifat tavsiflari aniqlanadi; v) Makroiqtisodiy model unsurlarining o'zaro bog'lanishi, ketma-ketligi belgilanadi va uning matematik modeli keltiriladi; g) matematik modelda hisobkitoblar amalga oshiriladi va olingan natija tahlil qilinadi. Makroiqtisodiy model nazariy tadqiqot sifatida sinov va asoslashni talab etadi. Jamlangan statistik ma'lumotlarni Makroiqtisodiy modelga tushirish ehtimoldagi makroiqtisodiy oqibatlariga oldindan baho berish imkonini beradi. Tarmoklararo balans, davlat daromadlari va harajatlari balansi, to'lov balanslarini hisoblash Makroiqtisodiy modelga misol bo'la oladi.

Model iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi asosiy bog'liqliklarni soddalashtirilgan nazariy asoslanishi hisoblanadi Ekzogen o'zgaruvchilar - bu tashqaridan kiritiladigan o'zgaruvchilar. Endogen o'zgaruvchilar – bu ushbu model bilan tushuntiriladigan

o'zgaruvchilar. Model ekzogen o'zgaruvchilardan birining o'zgarishi endogen o'zgaruvchilarga qanday ta'sir etishini ko'rsatadi.

Har qanday model (nazariya, tenglama, grafik) real borliqning sodda va abstrakt ko'rinishi hisoblanadi, chunki tadqiqot o'tkazishda barcha elementlarni bir vaqtning o'zida barchasini hisobga olish mushkul masala hisoblanadi. Shuning uchun har qanday makroiqtisodiy modelni absolyut deb hisoblash mumkin emas. Bunday makroiqtisodiy modellar barcha mamlakatlar uchun bir vaqtning o'zida bir xil to'g'ri javob berish imkonini bermaydi. Ammo bunday «umumiylashtirilgan» modellar orqali bandlik, ishlab chiqarish, inflatsiya, investitsiya, iste'mol, foiz stavkasi, valuta kursi kabi ichki (endogen) iqtisodiy ko'rsatkichlarni boshqarishning kompleks muqobil usullari aniqlanadi.

Doiraviy oqimlar (aylanishlar) modeli. Bozor tizimida noyob ne'matlar muammosi quyidagi ikkita tamoyillar asosida echiladi: - optimallashtirish tamoyili - har bir faoliyatdan va resurslardan foydalanishdan maksimal foyda olish;

- alternativ xarajatlar tamoyili - noyob resurslardan foydalanish yo'nalishlarining barchasidan olinadigan foyda va xarajatlarni solishtirish orqali.

Iqtisodiy sub'ektlar ratsional harakat qilish tamoyiliga ko'ra o'z maqsadlariga erishishi uchun xo'jalik faoliyatida faol qatnashadilar, buning asosiy mohiyati shundan iboratki, iqtisodiy sub'ektlar berilgan resurslardan foydalanishdan olinadigan natijalarni maksimallashtiradi yoki ma'lum natijalarni olish uchun xarajatlarni kamaytiradi.

Modeldan foydalanishning afzalligi shundan iboratki, u muammoning ikkinchi darajali tomonlarini e'tiborga olmaydi. Modelda ikki turdagi o'zgaruvchilar ishlatiladi: ekzogen va endogen. Ekzogen o'zgaruvchilar tashqi o'zgaruvchilar bo'lib, ular oldindan beriladi va modelga kiritiladi. Endogen o'zgaruvchilar model ichida, hisob-kitoblar asosida shakllanadi. Tovarlar aylanmasida iqtisodiyot ikki sektorga bo'linadi: uy xo'jaliklari va firmalar. Uy xo'jaliklari o'z resurslarini (ishchi kuchi, kapital va erni) firmalarga sotib daromad oladilar va bu daromadlarini firmalardan tovarlar va xizmatlar olishga ishlatadilar. Firmalar o'zlarining tovar va xizmatlarini sotib undan tushgan daromadni uy xo'jaliklaridan resurslarni sotib olishga ishlatadilar.

Yalpi talab va yalpi taklif (AD-AS) modeli. Makroiqtisodiyotda AD-AS modeli muhim ahamiyatga ega bo'lib, yalpi talab milliy iqtisodiyotdagi barcha yakuniy iste'molchilarning, ya'ni aholi, korxonalar, davlat va chet elliklarning tovar va xizmatlar sotib olishga qiladigan xarajatlarining umumiy miqdorini, yalpi taklif esa davlat va xususiy sektorning milliy iqtisodiyot darajasida sotishga taklif qilgan barcha tovar va xizmatlarining umumiy miqdorini puldagi ifodasidir. AD-AS modelida yalpi talab o'sib, yalpi taklif kamaygan holatda narxlar darajasi o'sib, milliy mahsulot miqdorini o'zgarishi esa ularni o'zgarish nisbatlariga bog'liq bo'ladi. Yalpi taklif o'sib, yalpi talab pasaygan holatda narxlar darajasi pasayib, milliy mahsulot miqdori

o'zgarishi ularning o'zgarish nisbatlariga bog'liq bo'ladi. Agar yalpi talab va yalpi taklif bir xil yo'nalishda, ya'ni biri o'ssa ikkinchisi ham o'ssa, biri pasayganda ikkinchisi ham pasaysa narx darajasi va milliy mahsulot miqdorini o'zgarishi bo'yicha aniq xulosa qilish qiyin bu ularning o'zgarish ko'lamlariga bog'liq bo'ladi. Narxlarni muvozanatli darajasi deb shunday narx darajasi tushuniladiki, unda yalpi talab va yalpi taklif bir-biriga mos kelishi yoki bir-biriga teng bo'lishi kerak. Narxlarni muvozanatli darajasida ma'lum miqdordagi mahsulotni haridorlar sotib olishga, ishlab chiqaruvchilar esa uni ishlab chiqarish va sotishga rozi bo'ladi. Buni milliy ishlab chiqarish hajmini muvozanatli real hajmi deb ataydilar. Chizmada bu ikki ko'rsatkich yalpi talab va yalpi taklif egri chiziqlarining kesishgan nuqtalari bilan aniqlanadi.

Bu holat AD-AS modelini o'zida ifodalaydi. Biz bilamizki, yalpi talab egri chizig'i yalpi talab tarkibiga kiruvchi iste'mol xarajatlari, investitsiya xarajatlari, davlat xarajatlari va xorijiy iste'molchilar xarajatlaridagi o'zgarishlar hisobiga o'ngga yoki chapga siljishi mumkin. Boshqa tarafdin esa, yalpi taklif egri chizig'i ham texnologiya, resurslar narxlari yoki soliqlar o'zgarishi bilan birgalikda mos tomonga siljiydi.

Har qanday bozordagi vaziyat talab va taklifga ya'ni, ularning hajmini o'zgarishiga bog'liq bo'ladi. Ular o'rtasida yuzaga kelgan nisbat o'z ketidan narxlarni o'zgarishiga va aksincha, narxlarni (u yoki bu tomonga) tebranib turishi talab va taklif hajmiga bevosita ta'sir qiladi. Bunday o'zaro bog'liqlik faqat qandaydir bir alohida mahsulot yoki xizmatga oid bo'lmay, balki umuman milliy bozorga ham taalluqlidir. Shu bozordagi talab alohida haridorlar istagi ko'rinishida bo'lmasdan, barcha haridorlarning birlashtirilgan talabi sifatida amal qiladi va makrodarajadagi iste'mol qobiliyatini aks ettiradi. Taklif esa, milliy ishlab chiqarish jami hajmining taklifi sifatida bozorga chiqadi. Shunday qilib, yalpi talab uy xo'jaligi, korxonalar, hukumat hamda xorijiy haridorlarning tovar va xizmatlarga talabidir. Boshqacha qilib aytganda, yalpi talab bu barcha yakuniy iste'molchilar, yani aholi, korxonalar, hukumat hamda xorijiy haridorlarning tovar va xizmatlarni sotib olishga qiladigan xarajatlarining puldagi ifodasidir. $AD = C+I+G+X_n$

Narxlar darajasi va yalpi talab o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud bo'lib, narxlar darajasini o'sib borishi bilan yalpi talab hajmi qisqarib boradi va aksincha. Ushbu bog'liqlikni chizma ko'rinishida ifodalash mumkin.

Tovarlar miqdori pul massasi (IS-LM) modeli. Tovar va pul bozorida umumiy muvozanatga erishish shartlari va makroiqtisodiy siyosat tadbirlarining bu ikki bozorga ta'sirini umumlashtirib tadqiq qilish IS - LM modeli yordamida bajariladi. IS - LM modeli birinchi marta 1937 yilda J.Xiks tomonidan keynsning makroiqtisodiy kontseptsiyasini izohlash uchun taklif etildi hamda 1949 yilda A. Xansenning "Monetar nazariya va fiskal siyosat" nomli kitobi nashr qilinganidan so'ng keng

yoyildi. Shu sababli bu model Xiks modeli yoki Xiks-Xansen modeli deb ham yuritiladi.

IS - LM modeli qisqa muddatli davrga ham tovarlar ham pul bozorida birgalikda muvozanat o'rnatilishi mexanizmini xarakterlaydi. Bunda tovarlar bozori deganda ham iste'mol, ham investitsion tovarlar bozori tushuniladi. Makro ko'lamda milliy ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi bilan birga narxlar umumiy darajasining o'zgarishi o'rtasida bog'liqlikni tadqiq qilish, nima uchun milliy ishlab chiqarish hajmi ayrim davrlarda barqaror o'sishi, ba'zi davrlarda esa pasayib ketishni izoxlab berish uchun yalpi talab - yalpi taklif (ADAS aggregate demand – aggregate supply) modelidan foydalanamiz.

Bu modelda yalpi talab va taklif, narxlarning umumiy darajasi kabi agregat ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Makroiqtisodiyotda AD-AS modeli ishlab chiqarish hajmlari va narxlar darajalarining tebranishlarini hamda ular o'zgarishining oqibatlarini o'rganish uchun asosiy model bo'lib hisoblanadi va boshqa bir qancha modellar AD-AS modelining xususiy holi hisoblanadi. AD-AS modeli yordamida davlat iqtisodiy siyosatining turli variantlari tasvirlab berilishi mumkin.

Keynsning makroiqtisodiy muvozanat modeli yalpi talab va yalpi taklif modelini qisqa muddatli makroiqtisodiy siyosat maqsadlarida aniqlashtirgan bo'lib, uning xususiy holi hisoblanadi. Yalpi talab va yalpi taklif modelidan farqli o'laroq bu modelda narxlar darajasi va ish haqi o'zgarish miqdorlar hisoblanadi. Ayni shu sababga ko'ra tovar moddiy zahiralarning o'sishi qisqa muddatda makroiqtisodiy muvozanatga erishishni belgilovchi omil bo'ladi.

Ishlab chiqarishning kamayishi natijasida mumkin bo'lgan yo'qotishlarning oldini olish uchun jami talabni tartibga solib turadigan faol davlat siyosati zarur. Shuning uchun ham Keynsning iqtisodiy nazariyasini ko'p hollarda jami talab nazariyasi deb yuritiladi. Jami talab komponentlari, ayniqsa investitsiyalarning o'zgarishi makroiqtisodiy beqarorlik sabablaridan biridir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida makroiqtisodiy muvozanatga erishishning roli va ahamiyati benihoya kattadir. Makroiqtisodiy muvozanat mamlakat iqtisodiyotining to'g'ri yoki noto'g'ri yo'ldan borayotganligini ko'rsatuvchi omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Chunki, iqtisodiyotda bo'layotgan doimiy o'zgarishlar xar qanday mamlakatni ham iqtisodiy muvozanatdan chiqarib yuborishi mumkin.

Xulosa.

Iqtisodiy o'sishning natijasi jamiyat a'zolarini ta'minlovchi foydali real moddiy ne'matlardir. Aynan ular iqtisodiy o'sishning haqiqiy mezonidir. Ijtimoiy taraqqiyotning oliy mezoni ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyoti darajasidir. Mezonga iqtisodiy o'sishni aniqlovchi ko'rsatkichlar muvofiq kelishidir. Ular o'z navbatida statistika va dinamik hamda miqdor, sifat ko'rsatkichlarga egadir.

Iqtisodiy o'sish, shu jumladan uning sifati to'g'risidagi masalalar mamlakat, uning mintaqalari, umuman biror-bir ijtimoiy tizimning rivojlanish istiqbollarini aniqlash uchun ham juda muhimdir. Iqtisodiy o'sish jamiyatning rivojlanish istiqbollarini prognozlash imkonini yaratadi. Bundan tashqari, iqtisodiy o'sish resurslarning cheklanganlik muammosini hal etish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Iqtisodiy o'sishni negizida iqtisodiyotdagi yetakchi tarmoqlarning rivojlanishi turadi. Iqtisodiy o'sish ishlab chiqarishning ilg'or tuzilmasiga, yuqori mehnat unumdorligi darajasiga, ichki va tashqi bozorda talab katta bo'lgan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga, mahsulotni qulay bozorlarda sotishga suyanadi. Boshqacha qilib aytganda, iqtisodiy o'sish mahsulot ishlab chiqarishning real hajmini muttasil ko'paytirib borish va ayni paytda jamiyat taraqqiyotida texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy tavsiflarning yaxshilanib borishini anglatadi.

Har qanday ishlab chiqarishning pirovard maqsadi - bu jamiyat ehtiyojlarini qondirishdan iboratdir, deb ta'kidlash albatta adolatdan bo'lar edi. Ammo bu o'rinda ehtiyojlamini yuqori darajada qondirish, bu farovonlikning asosiy maqsad va vazifasi ekanligini unutishimiz mumkin emas. Shunday qilib, iqtisodiy farovonlik-iqtisodiyot va

takror ishlab chiqarishning pirovard maqsadi boisa, iqtisodiy o'sish esa - oraliq maqsad, ya'ni yalpi ichki mahsulot yaratish zaruriyatidir. Mahsulot yaratish - bu sof ishlab chiqarishga xos masaladir, ammo takror ishlab chiqarishning barcha bosqichlarini hisobga olgan holda farovonlikning o'sishini ta'minlash - bu pirovard maqsad hisoblanadi va shu yo'sinda biz iqtisodiy rivojlanishni talqin etishimiz mumkin.

Shu tariqa, biz iqtisodiy o'sish va iqtisodiy rivojlanish kategoriyalarini talqin etish borasida tez-tez uchrab turadigan ko'pgina chalkashliklarni bartaraf etishga harakat qilamiz. Buning uchun iqtisodiy o'sish va iqtisodiy rivojlanish kategoriyalarini farqlashning quyidagi me'zonlarini taklif etamiz:

- Iqtisodiy o'sish ko'proq yalpi ichki mahsulotning o'sishi bilan, iqtisodiy rivojlanish esa - farovonlikning o'sishi bilan uyg'unlashadi;

- Iqtisodiy o'sishga iqtisodiy jihat (oraliq tavsifga ega bo'lgan mahsulot ishlab chiqarish) xos bo'lgani holda, iqtisodiy rivojlanishga ijtimoiy jihat xosdir, bunda jamiyat farovonligining o'sishi pirovard maqsad sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Farrux Qodirov / Econometric modeling of medical services in the territories / International Conference on Information Science and Communications Technologies ICISCT 2022 Applications, Trends and Opportunities 28th, 29th and 30th of September 2022, Tashkent, Uzbekistan.

2. Ergash o'g'li, Qodirov Farrux. "CREATION OF ELECTRONIC MEDICAL BASE WITH THE HELP OF SOFTWARE PACKAGES FOR MEDICAL SERVICES IN THE REGIONS." Conferencea (2022): 128-130.
3. Qodirov, F. E., O. D. Doniyorov, and Sh H. Shokirov. "BASIC CONCEPTS OF INFORMATION SECURITY IN INFORMATION SYSTEMS. WIDE THREATS AND THEIR CONSEQUENCES." КОНЦЕПЦИИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ НАУКИ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ. 2021.
4. Qodirov, F. E., O. D. Doniyorov, and H. Shokirov Sh. "Basic concepts of information security in information systems. Wide threats and their consequences." концепции устойчивого развития науки в современных условиях (2021): 153-155.
5. dots. Umarov K.Yu., dots. Xrvshimov P.Z., prof. Beknozov N. "IQTISODIYOT NAZARIYASI" – o'quv qo'llanma. Toshkent-2005.
6. Tulqin o'g'li, Usmonov Maxsud, Sayifov Botirali Zokir o'g'li, and Qodirov Farrux Ergash o'g'li. "IKKI ARGUMENTLI FUNKSIYANING ANIQLANISH SOHASI, GRAFIGI, LIMITI VA UZLUKSIZLIGI." BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI (2022): 148-152.
7. Қодиров Фаррух Эргаш ўгли. "Ижтимоий ва хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантиришда соғлиқни сақлаш хизматларини эконометрик моделлаштиришнинг аҳамияти", Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси ЎЗР ФА бирлашган касаба уюшма кўмитаси Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси ёш олимлар кенгаши, 2022/9/30, ст-211-213.
8. <http://parliament.gov.uz/uz/events/committee/23612/>.
9. <http://stat.uz>.
10. www.lex.uz.
11. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/02/14/sp/>
12. <https://daryo.uz>
13. <https://www.spot.uz/oz/2021/10/09/fitch>